



ZULFIYA – MA'NAVIYAT VA TIBBIYOT UYG'UNLIGI TIMSOLI

Ilmiy rahbar: Xurramov Ramazon Sadatovich

2-davolash fakulteti 116-a guruh talabasi Alijonova Ruxshonaxon

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'zbek adabiyotining yirik vakilasi Zulfiya hayoti va ijodini ma'naviyat hamda tibbiyot uyg'unligi nuqtai nazaridan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda shoiraning inson ruhiyati, ayol qalbi va jamiyat salomatligi haqidagi qarashlari yoritilib, uning ijodi ruhiy salomatlikni mustahkamlovchi ma'naviy manba sifatida baholanadi. Shuningdek, Zulfiya she'riyatida sabr, matonat, mehr-muhabbat va vatanparvarlik g'oyalarining psixologik barqarorlik va sog'lom jamiyat shakllanishidagi o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Zulfiya, ma'naviyat, tibbiyot, ruhiy salomatlik, ayol obrazi, psixologik chidamlilik, vatanparvarlik, ma'naviy meros, sog'lom jamiyat.*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу жизни и творчества узбекской поэтессы Зулфиьи с точки зрения гармонии духовности и медицины. В исследовании рассматриваются вопросы духовного здоровья, психологической устойчивости и роли женщины в обществе. Творчество Зулфиьи оценивается как источник нравственного воспитания и укрепления психического здоровья общества.*

Ключевые слова: *Зулфия, духовность, медицина, психическое здоровье, женский образ, патриотизм, психологическая устойчивость, национальная культура.*

Abstract: *This article analyzes the life and творчество of the prominent Uzbek poet Zulfiya from the perspective of harmony between spirituality and medicine. The study examines issues of mental health, psychological resilience, and the role of women in society. Zulfiya's poetry is evaluated as a moral and spiritual source contributing to the formation of a healthy society.*



Keywords: *Zulfiya, spirituality, medicine, mental health, women's role, patriotism, psychological resilience, national culture.*

Kirish

Zulfiya (Isroilova Zulfiya) o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi bo'lib, 1915-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Uning ijodi inson ruhiyati, ma'naviy poklik va ayol qalbi kechinmalarini teran ifodalashi bilan ajralib turadi. Shoira asarlarida ruhiy salomatlik va ma'naviy yetuklik masalalari yetakchi o'rin egallaydi.

1. Zulfiya ijodida ruhiy salomatlik masalasi

Tibbiyot inson tanasini davolasa, adabiyot inson ruhiyatini davolaydi. Zulfiya she'riyatida sabr, matonat va mehr-muhabbat g'oyalari insonni ruhiy barqarorlikka undaydi. Psixosomatik kasalliklarning kelib chiqishida stress va ruhiy iztirob muhim omil ekani ilmiy jihatdan isbotlangan. Shu nuqtai nazardan, Zulfiya ijodi ruhiy profilaktika vositasi sifatida ahamiyatlidir.

2. Hayot sinovlari va psixologik chidamlilik

Shoiraning turmush o'rtog'i Hamid Olimjonning bevaqt vafoti uning qalbida chuqur iz qoldirgan. Biroq Zulfiya hayotga muhabbat va ijodga sadoqat bilan yashadi. Bu esa psixologik chidamlilik va ruhiy barqarorlikning yorqin namunasi hisoblanadi.

3. Ayol obrazi va sog'lom jamiyat

Zulfiya ijodida ayol obrazi alohida o'rin tutadi. U ayollarni ilm olishga, jamiyatda faol bo'lishga va o'z salomatligiga e'tiborli bo'lishga chorlaydi. Bugungi kunda ayollarning ma'rifatli va ongli bo'lishi reproduktiv salomatlik va sog'lom avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Zulfiya ijodi ma'naviy va ruhiy tarbiya maktabidir. Agar tibbiyot inson tanasini sog'lom qilsa, Zulfiya she'riyati inson qalbini poklaydi. Jismoniy va ruhiy salomatlik uyg'unligi esa sog'lom jamiyatning asosidir.



Baxt va bahor kuychisi Zulfiyaga men izdosh,
Yuksak faxr tuyg'usi – menman unga vatandosh.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zulfiya. Tanlangan asarlar. — Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2006.
2. Olimjon H. Asarlar to'plami. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1985.
3. Karimov T. O'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: Fan, 2010.
4. Abdulkarimov I. Adabiyot va ma'naviyat. — Toshkent: Akademnashr, 2012.
5. Psixologik salomatlik asoslari. — Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2018.